



Ulug'bek YO'L DOSHEV,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b
E-mail: yoldoshev@.mail.ru

ff.d.dotsent v.b Z.Teshaboyeva taqrizi asosida

THE SYSTEM OF TASKS AND EXERCISES USED IN TEACHING LITERARY TRANSLATION

Annotation

Effective use of exercises and tasks in teaching literary translation to students helps to improve the linguistic, professional, creative and personal competencies of future students. These types of exercises and tasks help to expand students' knowledge, form their skills and qualifications on language and literary translation. Usually different exercises and tasks can be used according to student's or teacher's aim and tasks in translation lessons. According to practical directions of teaching translation exercises are divided into exercises for forming skill and experiences demanded to carry out any kind of translation activity, language exercises (lexical, phraseological, grammar and stylistic), speech exercises, exercises related to create a phenomenon or situation, complicated sentences are demanded to carry out several or many knowledge, skill and experiences. The system of exercises created on problems of morphological, syntactical, lexical and stylistic layers and methods of deprivation of them in translation process are devoted to teach future literary students.

Key words: translation, literary translation, task, exercises, competence, source language, target language, skill, experience, developing, improving.

СИСТЕМА ЗАДАНИЙ И УПРАЖНЕНИЙ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ НА ОБУЧЕНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОМУ ПЕРЕВОДУ

Аннотация

Эффективное использование упражнений и заданий при обучении студентов художественному переводу способствует совершенствованию языковых, профессиональных, творческих и личностных компетенций будущих студентов. Данные виды упражнений и заданий помогают расширить знания учащихся, сформировать у них умения и навыки по языковому и художественному переводу. Обычно на уроках перевода могут использоваться различные упражнения и задания в соответствии с целью и задачами ученика или учителя. По практическим направлениям обучения переводческие упражнения подразделяются на упражнения для формирования навыков и умений, необходимых для осуществления любого вида переводческой деятельности, языковые упражнения (лексические, фразеологические, грамматические и стилистические), речевые упражнения, упражнения, связанные с созданием явления или ситуации., сложные предложения требуют выполнения нескольких или многих знаний, навыков и опыта. Система упражнений, созданная по проблемам морфологического, синтаксического, лексического и стилистического пластов и приемов их лепкия в процессе перевода, посвящена обучению будущих литературоведов.

Ключевые слова: перевод, художественный перевод, задание, упражнения, компетенция, исходный язык, целевой язык, умение, опыт, развитие, совершенствование.

BADIY TARJIMANI O'QITISHDA QO'LLANADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI

Annotatsiya

Badiy tarjimani talabalarga o'qitishda mashq va topshiriqlardan samarali foydalanish bo'lajak talabalarning lingvistik, kasbiy, ijodiy, shaxsiy kompetensiyalarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu turdag'i mashq va topshiriqlar talabalarning bilimlarini kengaytirishga, ularning til va badiy tarjima bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Odatda tarjima darslarida talaba yoki o'qituvchining maqsad va vazifalariga qarab ko'plab turdag'i mashqlar bajarilishi mumkin. Tarjimani o'qitishning amaliy yo'naliishiga ko'ra mashqlar tarjima faoliyatining har qanday turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan mashqlar, u yoki bu turdag'i tarjimani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan mashqlar, bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan mashqlar, til mashqlari (leksik, frazeologik, grammatik, stilistik), nutq mashqlari, bir hodisa yoki bir qiyinchilikni ishlab chiqishga qaratilgan mashqlar va bajarilishi bir necha yoki ko'p bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladigan murakkab mashqlar va boshqalarga bo'linadi. Mazkur maqolada yaratilgan mashqlar tizimi til sathlari, ya'ni morfologik, sintaktik, leksik, stilistik sathlarga doir tarjima muammolari va ularni tarjima jarayonida bartaraf etish usullarini bo'lajak tarjimonlarga o'rgatishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: tarjima, badiy tarjima, topshiriq, mashq, kompetensiya, asliyat tili, tarjima tili, ko'nikma, malaka, tajriba, rivojlanish, takomillashtirish.

Kirish. Ta'lim jarayonida har qanday fan sohani o'qitishda o'r ganuvchiga taqdim etiladigan dars materillaridagi malumotlarni o'r ganuvchilar ongida mustahkamlash uchun mashq va topshiriqlardan foydalilanildi. Bu kabi mashqlar qo'llanishiga bevosita dars jarayonida

hamda darsdan tashqarida mustaqil ta'lim yoki uy vazifasi sifatida qo'llash mumkin bo'ladi.

Mashq qilish deganda metodologiyada malumotlarni o'zlashtirish yoki ta'lim jarayonida takomillashtirish maqsadida alohida yoki ketma-ket operatsiyalar, harakatlар yoki har qanday faoliyatning maxsus tashkil etilgan bir yoki

bir nechta vaifalarni bajarilishi nazarda tutildi [Бим 1988, 122]. Ta'lim jarayonida mashqlardan foydalanishning asosiy maqsadi dars jarayonida berilgan ma'lumotlarni o'rjanuvilarda mustahkamlash nazarda tutildi. Bu borada S.F.Shatilov mashqni "ta'lim sharoitida maxsus tashkil etilgan bir yoki bir qator operatsiyalar yoki kommunikativ xarakteridagi harakatlarning bir va ko'p bora bajarilishi" deb tushunadi [Шатилов 1986, 19]. Albatta, S.Shatilovning fikriga ko'shilgan holda, mashqlar muayyan bir mavzu yuzasidan, tizimli va ketma-ketlikda amalga oshirilidagan ta'lim faoliyatini hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. E.I.Passov mashqlarni nutq faoliyatini o'rgatish vositasi deb xisoblasa [Пассов 1991, 98], I.L.Beam, T.S. Sereva "mashqni chet tilini o'rganish faoliyatining uslubiy birligi, material va amalga oshirish harakatlarining birligining shakli sifatida ko'rish maqsadga muvofiq" [Бим 1988, 213], deb xisoblaydilar. Ta'lim jarayonida mashqlar berilayotgan materiallar mazmuniga bevosita mos bo'lishi lozim. Jumladan, darsning mavzusi ingliz tilida modal fe'llar qilib belgilangan bo'lsa, dars materiali va unga mos ravishda mashqlar ham modal fe'llarga doir bo'lishi lozim.

Ko'plab xorijlik va maxalliy mambalarlarda mashqlar tizimining turli tasniflari keltirib o'tilgan. Jumladan, S.Shatilov nutqiy faoliyatni rivojlantirish vaqtida qo'llanishi mumkin bo'lgan mashqlarni quyidagi uch turga bo'ladi: 1) hech qanday kommunikativ funksiyalar yoki kommunikativ orientatsiyaga ega bo'lmagan til mashqlari, 2) akademik muhit va muloqotda nutq muloqotiga taqlid qiluvchi nutq oldi mashqlari, 3) turli nutq ko'nikmalarini orqali har kungi hayot muloqotiga imkon beruvchi nutq mashqlari [Шатилов 1986, 55].

N.Gez esa kommunikativ yozishni o'qitishda qo'llanadigan mashqlari shug'llantiruvchi va nutq mashqlariga bo'ladi. N.Galskova esa quyidagi mashqlar tizimini taklif etadi: reproduktiv (namunaga asoslanib matn yozish), reproduktiv-produktiv (turli vositalar: verbal (kalit so'zlar, voqeqlikning mantiqiy chizmasi, reja va hokozolar) va noverbal (fotorasm, rasmlar to'plami, kalit so'zlar, frazalar, ifodalar kabilalar)dan foydalanib, hat bo'yicha o'zining variantini yaratish, produktiv (verbal yoki noverbal rag'battlardan holi) mashqlar.

Tarjimanini, xususan badiiy tarjimanini o'qitishda qo'llanadigan mashq va topshiriqlar yuqorida takidlab o'tilgan til topshiriqlaridan farq qiladi. Mashq va topshiriqlar zarur ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy usuli hisoblanadi.

Tarjimaning har xil turlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar o'rgenish jarayonida maxsus mashqlar, shuningdek, ma'lum turdag'i tarjiman bajarishga o'rgatish orqali yaratiladi [Yo'ldoshev 2021, 32].

Тадқиқот методологияси (Research Methodology) Tarjima darslarida talaba yoki o'qituvchining maqsad va vazifalariga qarab ko'plab turdag'i mashqlar bajarilishi mumkin. Tarjiman o'qitishning amaliy yo'nalishiga ko'ra quyidagi mashqlar guruhi yaratish mumkin:

1. tarjima faoliyatining har qanday turini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar (masalan, matnni tahlil qilish va sintez qilish, matn uslubi va jamrini aniqlash va boshqalar);

2. u yoki bu turdag'i tarjiman amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga mashqlar (chet tilidan ona tiliga yozma tarjima - o'qish texnikasi orqali, shu jumladan lingvistik va filologik tarjima qilish, tarjima qilingan matnni segmentatsiyalash, tahrirlash, chet tilidan ona tiliga tarjima qilish uchun - tinglash ko'nikmalarini va malakalarini, nutq texnikasi, so'zlovchining kommunikativ ko'nikmalarini aniqlash, matnni muhim belgilarini yo'qotmasdan kompressiyalash, kodlash va qayta

tiklash, bir vaqtning o'zida bir nechta harakatlarni bajarish va boshqalar);

3. bilimlarni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan mashqlar;

4. til mashqlari (leksik, frazeologik, grammatic, stilistik);

5. nutq mashqlari;

6. bir hodisa yoki bir qiyinchilikni ishlab chiqishga qaratilgan mashqlar va bajarilishi bir necha yoki ko'p bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni talab qiladigan murakkab mashqlar va boshqalar.

Tarjima faoliyatini o'rgatishda tarjimon uchun mutlaq zarur bo'lgan deverbalitsiya, transformatsiya va almashtirish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, umumon olganda talabalarda ikki tillilik mexanizmini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar alohida ro'rl o'yaydi [Yo'ldoshev 2021, 56].

Deverbalitsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:

a) Matnni sanash bilan o'qish. Talabalarga ovoz chiqarib sanash paytda matnni ko'zlar bilan o'qish taklif etiladi, shundan so'ng matn mazmunini qayta aytib berish kerak bo'ladi. Bunday mashqlar ona tilidagi matnlarni o'qishdan boshlanishi kerak, keyin esa xorijiy matnlarga o'tilishi kerak. Sanash hisob ham murakkab bo'lishi kerak. Birinchidan, talabalar o'z ona tilida, keyin esa chet tilida hisoblashadi. Qayta hikoya qilish uchun til tanlash talabalarning tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Bu kabi mashqlar operativ xo'rirani rivojlantirishga va diqqatni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

b) Mikro havola. Talabalarga 800 - 1000 ta bosma belgilardan iborat yozma matn ko'rinishidagi ma'lumot taklif etiladi, ulardan kalit so'zlarini yozishlari kerak bo'ladi. Bu asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan so'zlardan iborat bo'ladi. Ushbu ish uchun ikki daqqaqaj ajratiladi. Shundan so'ng, matn tanlanadi va talabalar yozgan so'zlar asosida butun ma'lumotni qayta aytib berish uchun o'zlarining variantlarini o'zaki ravishda taklif qilishlari kerak bo'ladi. Mashqni o'z ona tilidagi matndan, so'ogra uning keyingi tarjimasi bilan chet tilidan boshlash tavsya etiladi. Mashqdan asosiy ma'lumotlarni taqsimlash bilan matnni semantik tahlil qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish uchun ham foydalanish kerak.

c) Ma'lumotni belgilar yordamida yozib olish. Og'zaki matnni idrok etish jarayonida talabalar so'zlariga murojaat qilmasdan, uning mazmunini ma'lum belgilari, eslatmalar yoki chizmalar yordamida qog'ozga joylaydilar. Belgilarni o'quvchilar o'zlarini tanlaydilar, lekin ularni (savol, muammo, topshiriq, bahs va boshqalar) almashtirishi mumkinligini eslatish maqsadga muvofiq. Kichik doira nafaqat davra suhbatini, balki boshqa turdag'i narsalarni uchrashuvlar, baxslar, suhbatlar, muzokaralar va boshqalar ham eslatadi. Talabalar matnni tinglab bo'lgach, o'zlarini o'ylab topgan belgilari yoki chizmalar asosida uning mazmunini tiklaydilar. Ushbu mashq bilan ishlashni o'z ona tilidagi matnlardan boshlashi kerak, keyin esa chet tiliga o'tish lozim. "Ma'lumotni belgilar yordamida yozib olish" mashqi talabalarni ketma-ket tarjima qilishda yozuv tizimini o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Transformatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar:

a) Leksik birliklarni o'zgartirish mashqlari. Talabalarga sinonimik variantini topishi kerak bo'lgan so'zlar va iboralar ro'yxati taklif etiladi. Masalan, poytaxt, ishbilarmonlar, mamlakat prezidenti, Oliy majlis lug'aviy birliklari o'miga mamlakatning bosh shahri, tadbirkorlar, davlat rahbari, parlament so'zlarini o'quvchilar tomonidan taklif qilinishi mumkin. O'qituvchi talabalarni imkon qadar tezroq javob berishga undash kerak. Mashq talabalarni o'z ona tiliga

tarjima qilishni o'rgatishning dastlabki bosqichida, asta-sekin chet tiliga o'tishda qo'llaniladi. Mashq nafaqat so'zlarni o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantiradi, balki o'quvchilarning so'z boyligini ham boyitadi:

b) Gapni qayta qurish mashqi. Mashq qilish uchun kamida 10-12 so'zni o'z ichiga olgan jumla tanlanadi. Talabalar navbatma-navbat, har bir keyingi so'zdan boshlab, gapni qayta yaratadilar. Bunday mashqlar nafaqat transformatsiya qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ona tilida ham, chet tilida ham og'zaki nutq texnikasini o'zlashtirishga yordam beradi.

Taxjisi va natijalari. Tadqiqot ishimizda talabalarga badiiy tarjimani o'rgatishning lingvistik asoslarini aniqlash va metodik asoslarini yaratishga e'tibor qaratganligimiz bois quyida aynan badiiy tarjimani o'qitishda qo'llanadigan mashqlar tizimiga to'xtalib o'tamiz. Biz mos ravishda badiiy tarjimani o'qitishda qo'llanadigan mashqlarni badiiy tarjimadan oldingi taxlil uchun mashqlar, badiiy matn morfologiyasi tarjimasi uchun mashqlar, badiiy matn sintaksisi tarjimasi uchun mashqlar, badiiy matn leksikologiyasi tarjimasi uchun mashqlar hamda badiiy matn stilistikasining tarjimasi uchun mashqlarga tasnifladi.

Badiiy tarjimadan oldingi taxlil uchun mashqlar. Ushbu guruhga kiruvchi mashqlar asosan berilgan matnning muallifi, uslubini, janrini, qisqacha mazmunini, kimlar uchun mo'ljallanganligi, unda qo'llash mumkin bo'lgan tarjima uslublari va transformatsiyalarini aniqlash maqsadida foydalaniadi. Bu kabi mashqlar nasriy tarjimonning kasbiy, entsiklopedik, ekstralngvistik, kommuniktiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

1-mashq. Quyidagi matnni o'qing. Berilgan matnning uslubini, janriy xususiyatlari va qisqacha mazmunini aniqlang.

Saroy tinch uyquda, tun yarim. Hasanali hujranging uzun burama qulufini ochib ichkariga sham' yoqdi va bekning to'shagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi. Ammo Otabel nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigini ochilg'anidan, sham' yoqilib, o'rın yozilg'anidan go'yoxabarsiz kabi ustung'a suyalg'ancha qotib turar yedi.

— O'ningizni yozdim, bek.

Otabek bu so'z bilan hujraga kirdi va borib to'shagi yonig'a o'lturdi. Hasanali bekning yeshinib yotishini kutib turar, chunki uni yotquzib yoqilg'an sham'ni o'zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. Biroq Otabel to'shagi yonig'a o'lturdida, yana o'ylab qoldi... Otabel bir necha kunlardan beri Hasanalining ko'ziga boshqacha ko'rinar edi.

Badiiy matn morfologiyasi tarjimasi uchun mashqlar. Mazkur mashqlar to'plamidan aslyait matnida qo'llangan leksik birlıklar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligi, uning tarjima tilidagi muqobiliga mos kelish kelmasligi, agar mos kelmasa qanday boshqa lisoniy birlidam foydalanish, so'z turkumlarini transpozitsiyaga uchrashi masalalarini mustaxkamlash maqsadida foydalaniadi.

2-mashq. Quyidagi matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Matnda ot so'z turkumi vazifasida qo'llangan so'zlar tarjimasiga, ularning transpozitsiya xodisasisiga uchrashiga e'tibor qarating.

Hasanali chiqdi. Qosh qorayib, qorong'u tushayozg'an edi. Havo bulut, achchig', sovuq yel to'rt tomong'a yugur, onda-sonda qor uchqunlarini quvlab ziriqtirar edi. Eruv vaqtida yarim beldan loy kechishka to'g'ri keladigan ko'chalarning loyi qatqaloqlang'an, shuning uchun yurguchi qiynalmas, aksincha ola-chalpoq qor pag alarini boshishdan vujudga kelgan oyoq ostidagi «q'arch-g'urch» tovushlari kishiga bir turlik kayf, musiqaviy yengillik berar edilar.

Badiiy matn sintaksisi tarjimasi uchun mashqlar. Mazkur turdag'i mashqlar badiiy tarjima jarayonida aslyiat matni sintaksisi va uni tarjima matniga moslashtirish

jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish usullari, aslyiat va tarjima tillarining so'z tartibi borasidagi farqlarni yo'qqa chiqarish, badiiy matn tarjimasida qo'llanadigan sintaktik transformatsiyalar inversiya, so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, transpozitsiyalar, boshqa so'zlar bilan ifodalash, kengaytirish, so'z tarkibini o'zgartirish, antonimik tarjimadan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga bag'ishlanadi. Bu kabi mashqlardan dars jarayonida doimiy ravishda foydalanish bo'lajak tarjimonlarning kasbiy, lingvistik ijodkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

3-mashq. Matnni o'qing. Matndagi ajratilgan so'z birikmalarga e'tibor qarating. Ularni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling.

Qutidorning tashqarisiga er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lg'alar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo'sha sozandalr dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepih shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To'y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko'b, biroq majlisning borishida tartib yo'q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to'lg'an, qaysi havli yuzida bir tovoq oshni yeb o'lturadir, kim yig'lag'an bolasini ovitish bilan ovora, birav yor-yor o'qub, tag'in bittasining quvonchi ichiga sig'may xaxolab dunyonи buzadi, xullas bag'-bug' yetti qat ko'kdan oshadir...

Badiiy matn stilistikasining tarjimasi uchun mashqlar. Badiiy matn stilistikasi tarjimasiga bag'ishlangan mashqlar badiiy asarda qo'llangan tasviriy ifodalarni yuzaga keltiruvchi stilistik vositalar, badiiy uslubga xos bo'lgan tarjima muammolarini bartaraf etishni talabalarga o'rgatishni nazarda tutadi. Bu mashqlar orqali metafora, metonimiya, mubolag'a, kimoya, shaxslantirish, allyuziya kabi stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalarini talabalarga o'rgatiladi. Bu orqali talabalarning kasbiy, lingvistik, ijodiy hamda entsiklopedik kompetentsiyalarini rivojlantiriladi.

4-mashq. Quyidagi tarjima variantlarini aslyiat matni bilan solishtiring. Matnda qanday stilistik vosita qo'llanganligini aniqlang hamda qaysi tarjima variantida stilistik bo'yodkorlik saqlanganligini tavsiflab bering.

Aslyiat matni: Gulsin kuyav ro'lini o'ynar, Xoniimbibi Kumush ro'lida, ikkisining bir-birisiga qarab o'qishqan laparlari barchani kuldirib, ichaklarni uzar darajada.

I. To'xtasimov varianti: Here, Gulsin was playing the role of a groom, and Xonimbibi was playing Kumushbii's role, the conversation of both made the girls laugh.

Karl Ermakova varianti: Gulsun took the role of groom while Khanym-bibi played the bride - Kumush. They traded cheeky songs back and forth, becoming so funny and flirtatious that the girls rolled on the floor with laughter.

Mark Riz varianti: Gulsin played the role of groom while Khanum Bibi took Kumush s part, and as the two exchanged double entendres, the crowd fell into sidesplitting laughter.

Xуюса ва тақсифлар. Badiiy matn tarjimonlarini tayyorlash jarayonida badiiy tarjimani lingvisik muammolarini bartaraf etish usullarini talabalarga o'rgatishga bag'ishlangan ta'lim materiallarni takomillashtirish maqsadida yaratilgan mashqlar tizimidan dars jarayonida samarali foydalanish bo'lajak badiiy tarjimonlarning nasriy tarjima bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga, shuningdek, ularning lingvistik, kasbiy, ijodiy, entsiklopedik kompetentsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa bugungi kunda tarjimon tayyorlash, yozma tarjima, xususan badiiy tarjimani o'qitishning yangi bosqichga olib chiqlishiga bevosita xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev U.R. Badiiy tarjumaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 b.
2. Yo'ldoshev U.R. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 b.
3. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. – М.: Просвещение, 1988. – 255 с.
4. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 222 с.
5. Серова Т.С. Психология перевода как сложного вида иноязычной речевой деятельности. – Пермь: Перм. гос. техн. ун-т, 2001. – 221 с.
6. Шатилов С.Ф. Методика обучения немецкому языку в средней школе. – М.: Просвещение, 1986. – 222 с.